

ABU HOMID G'AZZOLIYNING "KIMYOYI SAODAT" ASARIDAGI
SAODAT KIMYOSI TA'RIFI

THE CONCEPT OF THE "ALCHEMY OF HAPPINESS" IN ABU HAMID
AL-GHAZALI'S KĪMIYĀ-YI SA'ĀDAT

ОПРЕДЕЛЕНИЕ «АЛХИМИИ СЧАСТЬЯ» В ПРОИЗВЕДЕНИИ АБУ
ХАМИДА АЛЬ-ГАЗАЛИ «КИМИЯ-ЙИ СААДАТ»

Nurmuhammedov Dinmuhammad Akmal o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Homid G'azzoliyning "Kimyoyi saodat" asarida ilgari surilgan saodat konsepsiyasi va uning mohiyati tahlil qilinadi. Asarda insonning haqiqiy saodatga erishish yo'li qalbni poklash, nafsni tarbiyalash, ma'rifat va ilohiy haqiqatni anglash bilan bog'liq holda yoritilgan. Tadqiqot davomida G'azzoliyning saodat haqidagi qarashlari, uning tasavvufiy-falsafiy asoslari hamda inson kamolotidagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, "saodat kimyosi" tushunchasining mazmuni, uning axloqiy va ma'naviy tarbiya bilan bog'liqligi manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida G'azzoliy ta'limotida saodatning insonni komillikka yetaklovchi asosiy omillardan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Abu Homid G'azzoliy, Kimyoyi saodat, saodat kimyosi, tasavvuf, qalb tarbiyasi, nafs tarbiyasi, ma'rifat, komil inson, axloq, ma'naviyat, islom falsafasi, ruhiy kamolot.

Abstract: This article analyzes the concept of happiness (*sa'ādah*) and its essence as presented in Abu Hamid al-Ghazali's work *Kīmīyā-yi Sa'ādat* (*The Alchemy of Happiness*). The work explains that the path to attaining true happiness lies in the purification of the heart, the discipline of the soul, the acquisition of knowledge, and the comprehension of divine truth. The study examines al-Ghazali's views on happiness, their Sufi-philosophical foundations, and their role in human perfection. Furthermore, the concept of the "alchemy of happiness," its content, and its connection with moral and spiritual education are analyzed from the perspectives of source studies and textual scholarship. The research demonstrates that, according to al-Ghazali's teachings, happiness is one of the fundamental factors leading human beings toward spiritual and moral perfection.

Keywords: Abu Hamid al-Ghazali, *Kīmīyā-yi Sa'ādat*, alchemy of happiness, Sufism, purification of the heart, discipline of the soul, ma'rifah (gnosis), perfect human being, ethics, spirituality, Islamic philosophy, spiritual perfection.

Аннотация: В данной статье анализируется концепция счастья и её сущность, представленная в произведении Абу Хамида аль-Газали «Кимийа-йи Саадат» («Алхимия счастья»). В произведении путь к достижению истинного счастья раскрывается через очищение сердца, воспитание души, обретение знания и постижение божественной истины. В ходе исследования рассматриваются взгляды аль-Газали на счастье, их суфийско-философские основы, а также их роль в духовном совершенствовании человека. Кроме того, понятие «алхимии счастья», его содержание и связь с нравственным и духовным воспитанием анализируются с точки зрения источниковедения и текстологии. В результате исследования научно обосновывается, что в учении аль-Газали счастье является одним из основных факторов, ведущих человека к духовному и нравственному совершенству.

Ключевые слова: Абу Хамид аль-Газали, «Кимийа-йи Саадат», алхимия счастья, суфизм, очищение сердца, воспитание души, маарифат (духовное познание), совершенный человек, этика, духовность, исламская философия, духовное совершенствование.

Islom tafakkuri tarixida ilm, axloq, tasavvuf, falsafa va kalom sohalarini o'zaro uyg'unlashtirgan allomalar orasida Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy alohida mavqega ega. U nafaqat o'z davrining yirik faqihi va mutakallimi, balki inson qalbi, ma'naviy tarbiya, ilmning mohiyati va oxirat saodatiga eltuvchi yo'l haqida chuqur fikr yuritgan mutafakkir sifatida ham tanilgan. Islom olamida unga "Hujjatul islom" degan yuksak nom berilgani ham uning ilmiy-ma'naviy salohiyati naqadar yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Abu Homid G'azzoliy hijriy 450-yil, milodiy 1058-yilda Xurosonning Tus shahri yaqinidagi Tobaron qishlog'ida tug'ilgan. Bu hudud hozirgi Eronning Mashhad atroflariga to'g'ri keladi¹.

G'azzoliyning otasi Muhammad oddiy hunarmand, ya'ni ip yigiruvchi kishi bo'lgan. Arab tilida ip yigiruvchi kishi "g'azzol" deb ataladi. Shu sababli keyinchalik bu nisba allomaning mashhur taxallusiga aylangan. G'azzoliyning otasi ilmga ixlosli, olimlarni hurmat qiluvchi, farzandlarining bilimli bo'lishini orzu qilgan inson edi. O'zi tirikchilik ishlari bilan band bo'lgani uchun chuqur ilm olish imkoniga ega bo'lmagan bo'lsa-da, ikki o'g'li Abu Homid Muhammad va Ahmadning ilm yo'lida kamol topishini juda istagan².

Rivoyatlarga ko'ra, G'azzoliyning otasi vafotidan oldin ikki farzandining taqdiridan xavotirga tushadi. U yaqin do'stiga o'g'illarini ilmi, solih va yetuk inson qilib tarbiyalashni vasiyat qiladi. Otasining so'fiy do'sti bu vasiyatni qabul qilib, Abu

¹ Abu Homid G'azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Munir, 2005. – B. 3.

² Аль-Джанаби М.М. Жизнь и творчество Аль-Газали: опыт философского осмысления. Часть 1. Аль-Газали в оценках современников и «газалиана» XIX–XX вв. // Пространство и Время. – 2017. – №2–3–4 (28–30). – С. 192–207.

Homid G‘azzoliy va uning ukasi Abul Futuh Ahmadni o‘z qaramog‘iga oladi. Shu tariqa G‘azzoliy bolalik davridanoq ilm va tasavvufiy muhit ta’sirida shakllana boshlaydi³.

Har bir musulmon bandaning bu dunyodagi asosiy vazifasi Robbisi rozi bo‘ladigan insoniy maqomni egallash, o‘zini anglash, qalbini poklash va oxirat saodatiga erishishdan iboratdir. Imom G‘azzoliy nazarida insonning haqiqiy baxti tashqi boylik, mansab yoki obro‘ bilan emas, balki Alloh taoloni tanish, o‘z nafsini isloh qilish, dunyo va oxirat haqiqatini to‘g‘ri anglash bilan belgilanadi. Shu sababli “Kimyoyi saodat” asarining markazida insonni ma’naviy uyg‘otish, uning qalbini g‘aflatdan chiqarish, ilm va amalni birlashtirish g‘oyasi turadi⁴.

G‘azzoliyga ko‘ra, inson saodatga erishishi uchun avvalo o‘zini tanishi lozim. O‘zini tanimagan kishi Yaratuvchini, dunyoning mohiyatini va oxirat haqiqatini ham to‘laonli anglay olmaydi. Shuning uchun asarda saodat kimyosi, eng avvalo, insonning o‘z ruhiy mohiyatini, qalbining holatini, nafsining zaif tomonlarini va Alloh oldidagi mas’uliyatini anglashdan boshlanadi. Bu yondashuvda “o‘zini tanimoq” oddiy psixologik kuzatish emas, balki insonni Allohga olib boruvchi ma’rifiy yo‘l sifatida talqin qilinadi.

“Kimyoyi saodat” asari mazmun jihatidan G‘azzoliyning yirik asari “Ihyou ulumid-din” bilan chambarchas bog‘liq. Manbalarda bu asar “Ihyo”dagi ayrim asosiy g‘oyalarni forsiy tilda, xalq uchun tushunarliroq va ixchamroq shaklda bayon qilgan manba sifatida ko‘rsatiladi. Shu jihatdan “Kimyoyi saodat”ni faqat tarjima yoki qisqartma sifatida emas, balki muallifning xalq ommasiga qaratilgan tarbiyaviy, axloqiy va ma’naviy dasturi sifatida baholash lozim⁵.

Muallifning o‘zi asarni fors tilida yozishdan maqsad xalqning undan oson foydalanishi, murakkab diniy-ma’naviy masalalarni sodda va tushunarli tarzda anglashiga ko‘maklashish ekanini bildiradi. Bu hol G‘azzoliyning ilmni faqat xos olimlar doirasida saqlab qolishni emas, balki uni jamiyatning ma’naviy ehtiyojiga xizmat qildirishni ko‘zlaganini ko‘rsatadi. Uning nazarida ilm insonni faqat bahs va munozaraga emas, balki amal, ixlos va qalb pokligiga yetaklashi kerak⁶.

Asar “haqiqatlar debochasi” bilan boshlanadi. Unda muallif Alloh taolaga hamd aytib, bu kitobni yaxshi niyat bilan tugatishni so‘raydi, o‘zini riyodan, takallufdan va behuda da’vodan saqlashni tilaydi. Bu kirishning o‘ziyoq asarning asosiy ruhini ko‘rsatadi: G‘azzoliy uchun ilm faqat nazariy mulohaza emas, balki bandaning Alloh oldidagi o‘jizligini anglash, tavfiqni Undan so‘rash va har bir so‘zni amal bilan bog‘lashdir.

³ Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Munir, 2005. – B. 3.

⁴ Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Munir, 2005. – B. 16–22.

⁵ Mahkam Mahmud Andijoniy, Abdulloh Umar Toshkandiy. Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoyi saodat: Ruh haqiqati. – Toshkent: Adolat, 2005. – B. 10.

⁶ Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Munir, 2005. – B. 20.

G‘azzoliy Alloh taoloni tanish masalasida inson aqlining chegarasi borligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, Allohning zoti inson xayoli va tasavvuri bilan qamrab olinmaydi. Bandaning eng oliy ma’rifati, aslida, Haq taoloning ulug‘ligi oldida o‘z o‘jizligini e’tirof etishidir. Shu ma’noda asarda ma’rifat insonni kibrga emas, kamtarlikka; da’voga emas, bandalikni chuqur his qilishga olib borishi kerakligi bayon etiladi.

Asar debochasida G‘azzoliy Muattala va Mushabbaha qarashlariga ham munosabat bildiradi. Muattala yo‘nalishi Allohni tanish mumkin emas, degan tomonga og‘sa, Mushabbaha Allohni maxluqotga o‘xshatish yo‘lidan boradi. G‘azzoliy esa bu ikki yondashuvni ham to‘g‘ri deb bilmaydi. U Allohni maxluqotga o‘xshatmaslik, shu bilan birga, Uning mavjudligi va qudratini oyatlar, dalillar, yaratilgan olamdagi belgilar orqali tanish mumkinligini ta’kidlaydi. Bu orqali u aqidada mo‘tadil ahli sunna yo‘lini tutadi.

G‘azzoliy Allohni “qanday?” yoki “nima uchun?” kabi maxluqotga xos savollar bilan idrok etishga urinishni noto‘g‘ri deb biladi. Chunki bunday savollar cheklangan aql va tajriba doirasidan kelib chiqadi. Alloh taolo esa zamon, makon, shakl va o‘xshashlik chegaralaridan pokdir. Biroq inson olamdagi tartib, hikmat, go‘zallik va yaratilish belgilarini kuzatish orqali Yaratuvchining qudratini anglaydi. Demak, asarda aqida va tafakkur bir-biridan ajratilmaydi, balki insonni e’tiqodiy hushyorlikka olib boruvchi ikki muhim vosita sifatida ko‘riladi.

Shundan so‘ng G‘azzoliy inson nima uchun yaratilgani masalasiga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, Alloh taolo insonni behuda o‘yin yoki tasodif uchun yaratmagan. Insonning yaratilishidan maqsad Allohni tanish, Unga bandalik qilish va ruhiy kamolotga erishishdir. Inson tanasi tuproqdan yaratilgan bo‘lsa-da, uning ruhi ilohiy dargohga nisbat berilgan yuksak mohiyatga ega. Shu sababli inson hayvoniy sifatlar darajasiga tushishi ham, farishtalarga xos poklik va ma’rifat martabasiga ko‘tarilishi ham mumkin.

G‘azzoliy insonni dastlab nuqsonli, kamolga muhtoj mavjudot sifatida tasvirlaydi. Uning mukammallikka erishishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Buning uchun mujohada, riyozat, ibodat, tafakkur, nafsni tiyish va qalbni poklash zarur. Demak, “Kimyoyi saodat”da inson kamoloti tug‘ma holat emas, balki doimiy tarbiya, mehnat va ichki kurash natijasi sifatida talqin qilinadi.

Asarning nomidagi “kimyo” timsoli ham chuqur ma’noga ega. O‘rta asrlarda kimyogarlar oddiy ma’danlarni oltin darajasiga yetkazishga, umrboqiylik eliksirini topishga intilganlar. G‘azzoliy esa haqiqiy kimyo moddiy oltin yaratish emas, balki inson qalbini hayvoniy sifatlardan poklab, uni farishtalarga xos poklik va saodat darajasiga ko‘tarish ekanini bayon qiladi. Mis va bronzani oltin qilish dunyo manfaatiga xizmat qilishi mumkin, ammo inson qalbini poklash oxirat obodligiga xizmat qiladi.

G'azzoliy saodat kimyosini oddiy dunyoviy boyliklardan ustun qo'yadi. Uning fikricha, oltin va javohirlar podshohlar xazinasida bo'lgani kabi, haqiqiy saodat kimyosi ham payg'ambarlar va ularning vorislari bo'lgan ulamolar merosida mujassamdir. Uni boshqa joydan izlash gumrohlikdir. Alloh taolo insoniyatga bu yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan, ular odamlarni poklash, ularga Kitob va Hikmatni o'rgatish vazifasini bajarganlar.

G'azzoliy bu fikrni Qur'ondagi payg'ambar yuborilishi haqidagi oyat bilan mustahkamlaydi. Unda Alloh taolo omiylar orasidan ularga oyatlarni tilovat qiladigan, ularni poklaydigan, Kitob va Hikmatni o'rgatadigan payg'ambar yuborgani bayon qilinadi. Bu oyat G'azzoliy talqinida saodat kimyosining asosiy manbasi vahiy, payg'ambarlik merosi va qalbni poklash tarbiyasi ekanini ko'rsatadi⁷.

Asarda "Robbingizning nomini yod eting va Unga butunlay ajraling" mazmunidagi oyatga ham murojaat qilinadi. Bu oyat G'azzoliy nazarida insonning qalban dunyo g'aflatidan ajralib, Allohga yuzlanishi zarurligini bildiradi. Bunda dunyoni butunlay tark etish emas, balki qalbni dunyoga qul qilmaslik, dunyo vositalaridan oxirat maqsadi yo'lida foydalanish nazarda tutiladi⁸.

"Kimyoyi saodat"ning asosiy mazmuni ilm, amal, axloq, halol rizq, tavba, sabr, shukr, ixlos, tavakkul, taqvo, zuhd va qalb pokligi kabi tushunchalar atrofida qurilgan. G'azzoliy insonning haqiqiy qiymatini uning tashqi mavqei yoki bilim miqdori bilan emas, balki qalbining holati, niyati, Alloh bilan aloqasi va amalidagi ixlos bilan o'lchaydi. Shu sababli asarda qalbni davolash, uni g'aflat, kibr, riyo, hasad va hirs kabi illatlardan poklash masalasi asosiy o'rin tutadi.

G'azzoliy ilmni foydali va zararli turlarga ajratadi. Foydali ilm insonni Allohga yaqinlashtiradigan, shariatga amal qilishga undaydigan, qalbni poklaydigan va jamiyatga foyda keltiradigan ilmdir. Zararli ilm esa insonni kibr, maqtanish, obro'parastlik, hirs va dunyo manfaatiga qullikka olib boradigan bilimdir. Muallif ilmni nafs istaklariga xizmat qildirishni qattiq tanqid qiladi. Uning nazarida ilm amalga aylanmasa, u insonni najotga emas, javobgarlikka olib boradi.

Asarda inson tabiatining ichki tuzilishi ham chuqur tahlil qilinadi. G'azzoliy insonni ruh va nafs o'rtasidagi kurash maydoni sifatida ko'radi. Nafsdan hayvoniy, yirtqich, iblisiy va ilohiy sifatlar mavjud. Hayvoniy sifat shahvat va ozuqa istagiga, yirtqich sifat g'azab va zo'ravonlikka, iblisiy sifat hiyla va makrga, ilohiy sifat esa hikmat, adolat, ma'rifat va poklikka moyildir. Insonning vazifasi ana shu kuchlarni aql, shariat va qalb tarbiyasi yordamida muvozanatga keltirishdir⁹.

⁷ Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – Juma surasi, 2-oyat.

⁸ Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – Muzammil surasi, 8-oyat.

⁹ Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. Birinchi kitob. – Toshkent: Movarounnahr, 2005. – B. 30–35.

G'azzoliy sabr, shukr, tavba, ixlos, toat, tavakkul, qanoat, taqvo va zuhd kabi sifatlarni insonni saodatga olib boruvchi asosiy ruhiy fazilatlar sifatida bayon qiladi. Masalan, tavba faqat gunohni til bilan tan olish emas, balki gunohdan pushaymon bo'lish, undan qaytishga qat'iy qaror qilish va kelajakda uni takrorlamaslikka ahd qilishdir. Sabr esa faqat musibatga chidash emas, balki toatda bardavom bo'lish, gunohdan saqlanish va nafs talablarini nazorat qilishdir¹⁰.

“Kimyoyi saodat”da Allohga yaqinlik, ya'ni qurb maqomi inson hayotining eng oliy maqsadi sifatida ko'rsatiladi. Bu yo'l faqat tashqi amallar bilan emas, balki qalb hushyorligi, niyat pokligi, doimiy zikr, halollik va riyodan saqlanish orqali hosil bo'ladi. G'azzoliy zohiriy ibodatlar qalbdagi haqiqatlarning ifodasi bo'lishi kerakligini uqtiradi. Agar tashqi amal qalb pokligidan ajralib qolsa, u insonni haqiqiy saodatga olib bormaydi.

Asarda dunyo va oxirat munosabati ham muhim masala sifatida yoritiladi. G'azzoliy dunyoni mutlaq yomon deb bilmaydi. U dunyoni oxiratga tayyorgarlik maydoni, imtihon joyi va vosita sifatida talqin qiladi. Ammo dunyoga haddan tashqari bog'lanish, uni asosiy maqsadga aylantirish insonni halokatga olib boradi. Shu bois halol mehnat qilish, oilani boqish, jamiyatga foyda yetkazish zarur, lekin qalb dunyoning quliga aylanmasligi lozim.

Umuman olganda, “Kimyoyi saodat” asarida nazarda tutilgan mazmun-mohiyat insonni ichki jihatdan yangilash, qalbini poklash va hayotini ma'naviy maqsad asosida tartibga solishdan iboratdir. G'azzoliy insonni dunyo bilan butunlay uzilish yoki faqat zohiriy ibodatlar bilan cheklanishga emas, balki dunyoda yashagan holda oxiratni unutmaslikka, ilm olgan holda unga amal qilishga, ibodat qilgan holda qalbini poklashga va odamlar bilan muomala qilgan holda odob, halollik hamda adolatni saqlashga chaqiradi. Shu jihatdan “Kimyoyi saodat” insonning shaxsiy kamoloti, oilaviy hayoti, jamiyatdagi o'rni va oxiratga tayyorgarligini bir butun holda yorituvchi bebaho ma'naviy manbadir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Homid G'azzoliy. Al-Munqiz min az-zalol. – Toshkent, 2010.
2. Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. Birinchi kitob. – Toshkent: Movarounnahr, 2005.
3. Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Movarounnahr, 2006.
4. Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. Uchinchi kitob. – Toshkent: Movarounnahr, 2007.
5. Abu Homid G'azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Munir, 2005.
6. Abu Homid G'azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Munir, 2021.
7. Abu Homid G'azzoliy. Kimyoyi saodat. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro

¹⁰ Abu Homid G'azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Munir, 2005. – B. 24–26.

markazi nashriyoti, 2019.

8. Abu Homid G‘azzoliy. Nasihat al-muluk. – Toshkent: Movarounnahr, 2003.
9. Al-Ghazali. The Incoherence of the Philosophers. – London, 2000.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 17-tom. – Toshkent, 2000.
11. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Nasriy bayoni bilan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.